

83
E 45

NIYATILLO ELBEK O'G'LI

KO'NGLIMDAGILAR



KITOBIM

BIRINCHI

SHE'RLAR

83

2184

№ 45 N Ёшк сўли

Ўонгилмадани

Китоб шу ерда кўрсатилган муддатдан
кечиктирилмаган ҳолда топширилиши шарт


Илгариги берилмалар миқдори _____

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
"IJOD" JAMOAT FONDI

NIYATILLO ELBEK O'G'LI

K O'NGLIMDAGILAR

She'rlar



TOSHKENT
"ADABIYOT"
2020

Nashr uchun mas'ul:

Nodir JONUZOQ,

*O'zbekiston Yozuvchilar uyushma raisining ijodiy ishlar
bo'yicha birinchi o'rinbosari*

Mas'ul muharrir:

Halima AHMAD

Ushbu kitobda Niyatillo Elbek o'g'lining samimiy ko'ngil chiziqclariga, vijdon shakliga ko'zingiz tushadi. "Ko'nglimdagilar" nomi ostida chop etilgan mo'jazgina kitob o'quvchisini bepoyon kengliklardan olib o'tib shahar tomon yetaklaydi. Shudringli tongdan to shafaqqa eltuvchi uzun qalb yo'lini shirin xayollar bilan poyi piyoda kezib o'tasiz.

*Ushbu kitob 2019-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
she'riyat kengashi tomonidan nashrga tavsiya qilinib,
"Ijod" jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan.*

ISBN 978-9943-6779-9-9

2184
Zangiota PKM

© N. Elbek o'g'li, 2020

© "Adabiyot", 2020

NIYATI EZGU QALAMKASH

Shoirlari ko'p millatning armoni katta bo'ladi va yana orzulari armonidan ham ulug'roq bo'ladi. Shoirlar xalqning bag'ri so'zonidan tug'iladilar. Xalqimizda har nafasda bir shoir tug'ilayotgandek go'yo...

Niyatillo ham o'z nomi bilan ezgu so'z aytmoqqa chog'langan ekan, uni qutlamoq kerak. "Ko'nglimdagilar" kitobiga kirgan she'rlari yosh shoirning o'z qalbini kashf qilishga intilish, jonsarak ko'nglini goh daryoga, goh sahroga talpintirayotgan o'jar tuyg'ularining hosilasidir.

Bir she'rida u:

*Men baxtni his qilay ko'z yosh bilan ham,
Dunyoga yolg'ondan kulib charchadim, –*

deydi.

Sezdim, Niyatillo mardonalikni suyadi.
O'zi aytmoqchi:

*Tugamaydi hech qachon o'yin,
Men g'alaba qilmagunimcha...*

Rostgo'ylikni, mardonalikni suygan yosh qalamkash, agar o'zidan adashmasa, mashhurlikka berilmasa, katta shoir bo'ladi.

Shu yo'lda Niyatilloga mardona, farzona aytimlar yor bo'lishini tilab qolamiz.

Halima AHMAD,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,
shoira.

O'RINDIQ

Ko'milgancha betakror ishqqa,
Xayollarga berilib sokin,
Qanday go'zal o'tirardik biz,
O'rindiqda halovat hokim!

Gumonlarni itqitib chetga,
Unutgancha dunyo o'yini,
Nigohimiz jim so'zlashardi,
Biz tinglardik ishqning kuyini.

Tamom. Qonun buzilgan edi,
Uzilgandi uzviylik to'liq.
Zamin uzra faqat qolgandi
Dunyo, biz va yolg'iz o'rindiq.

Ishq porlardi ko'zlarda moviy,
Olov edi tuyg'ularimiz.
Qalbimizda ishonch ilohiy,
Labimizda kulgularimiz...

Rishtalar pok nurli bir tongdek,
Xayollar ham samoviy tiniq.
Orzu edi kamalak rangda,
Baxtdan tortar edik xo'rsiniq.

Vaqlar o'tdi, o'zgartib ketdi,
Jim yig'iga yangroq kulguni,
Yomon ko'zdan berkita olmay,
Boy berdik biz o'shal tuyg'uni.

Teng ikkiga bo'lindi samo,
Endi baxt yo'q, soqovdir izhor.
Ta'rifiga ko'z tekkan sevgi,
Tik ikkiga bo'lingan ishq bor.

Endi qonun hukmron tamom,
Ketmoqlik bor, ammo qaytmoq yo'q.
Ayrilganmiz... negadir hamon
Bizni qo'msar o'shal o'rindi.



AXIR, BUGUN SEN TUG'ILGAN KUN!

Ko'zingdan yulduzlar porlagan mahal,
Zaminda g'alayon ulg'aygan tongda,
Oy yerga suqlanib qaragan mahtal,
Axir, sen tug'ilgan eding shu onda.

Gullarning hasadi kelgandi chunon,
Yaratgan do'ndirib qo'ygan labingga,
Shundan timsol etsam husning har qachon,
G'unchalar yoqmagay sening ta'bingga.

Yuzing oydinligin, osudaligin
Mohga qiyos etsam, qilgaysan araz.
O'zing ayt bo'lmasa, qaydan tug'ilgan
Bundayin latofat, bundayin oraz?!

Ha, o'shal lahzada! Xayol qilaman,
Osmondan yog'dular to'kilgan duv-duv,
Ha, o'sha lahzadan! Aniq bilaman,
Tunning ko'zlaridan qochgandir uyqu!..

Tushimda ko'rganman? Aniq bilmayman,
Balki, xayolimda shundayin surat.
Go'zalsan! Hech qachon inkor qilmayman,
Lekin topolmasman qarshingda jur'at...

Va mana! Xayollar butkul parishon,
Vasling yuragimga boshlaydi hujum.
Shundayin o'zgacha bo'ladi, ishon,
Axir, axir, bugun sen tug'ilgan kun!!!

KETDIM

Ketdim...
Seni tashlab xayollar bilan,
Ko'klardan tushganding, ko'kka sovurdim.
Va yana javobsiz savollar bilan
Tirik xotiralar bilan ovunding.
O'tli hislaringni topa olmay tang,
Shamol shivirida hech ne sezmayсан.
Yelkasida pidjak ildirib olgan -
Kimnidir ko'rganda meni eslaysan.



UZRDAN KEYIN

...So'ng nuqta qo'yildi uzrdan keyin,
Qo'rqding ishqqa to'la ko'zimga boqib.
Va ketding qayrilib jim, indamayin,
Telba g'ururingga ko'zmunchiq taqib.

Achchiq yolg'onlarni yutamiz ichga,
Yuraklarni aldab yashaymiz har on.
Nigohlar kesishgan paytda ham hatto,
Xuddi sevmaganday o'tamiz, ishon.

TANLOV

Ikki dunyo saodati deb,
Yolg'onlarni ermakka yo'yib,
Qalb yo'liga birga chiqqandik,
Muhabbatni o'rtaga qo'yib.

Nima bo'ldi, nimalar bo'ldi,
Sen dunyoni talashib ketding.
Yuraginga yetay deganda
Nafs yo'liga adashib ketding...

ONA QISHLOQ

Qaytdim senga, o, ona qishloq,
G'uborlarim ketsin sochilib.
Onam meni sog'inar mushtoq,
Otam kutar izdosh lochinin.

Senda qolgan doimo yodim,
Shahar yo'lim to'sgani-to'sgan.
Axir, sening bolangman-ku men,
Daryodek keng qalbingda o'sgan.

Qish. Izg'irin, zulmat kechalar,
Mehring tafti porlab turadi.
Olislardan tushlarimda ham
Sog'inch hissi chorlab turadi.

Zeriktirar soxta ta'zimlar,
Atrofimda yasama kibor.
Shu on seni eslayman, axir,
Samimiyluk senda ulug'vor.

Loysuvoq tom. Yomg'ir, loy ko'cha,
Sodda uylar, betakror dillar.
Yuragimning chandiqlariday
Qadoq qo'llar, mastura qo'llar.

Suv sepilgan rayhon supalar,
 Dil erkiga bo'ysunar aqlim.
 Tortib ketib shoirligimga,
 Qo'msay boshlar qishloqi qalbim.

Bari go'zal, bari betakror,
 Tonglaringda qushlar kulgisi.
 Sog'inganim yana beg'ubor,
 Tandirlardan kelgan non isi...

Tashvishlardan charchatsa shahar,
 Shovqinlari bermasa orom
 Men o'zingga qaytaman, shunda
 Poklab qo'ygin qalbimni mudom!



BOLALIK

Poshsholigim, beqarorligim,
Soxtalikni tanimas yuzlar.
Jilovini bermas asovdek
Dunyolarga sig'magan hislar.

Qum o'ynardik, qumda ko'milgan,
Ko'chalarda birga qolardik.
Ariqlarda birga cho'milgan
Oqib ketgan olis bolalik...

Gul terardik osuda ko'klam,
Onamga deb eng sof did bilan.
Dillarimiz pok edi tongdek,
Ko'zlarimiz oq edi tongdan.

Tinim bilmas go'zal xayollar
Osmon qadar cho'zilgan edi.
Qanot edi bizga orzular,
Ko'zlar yerdan uzilgan edi.

Yorug' edi osmonlarimiz,
Kunga tashbeh topa olmasdik.
Yig'lasak ham, musaffo ko'zyosh,
Bunga tashbeh topa olmasdik.

O'ylamasdik og'riq o'ylarni,
G'alvalardan xoli edik biz.
Shu vaqtlarni sog'indim juda,
Ne qilsak ham, bola edik biz.

Mushtlashsak ham hatto oraga,
Nafrat hech ham burun suqmasdi.
Suvdayin oq dillarimizga
Dardli kirlar sira yuqmasdi.

Birday bo'lgan erta-yu kechi,
Nola bo'lib qolgim kelyapti.
Katta bo'lish yoqmadi hech ham,
Bola bo'lib qolgim kelyapti.

Bizlardan xo'p toldi bolalik,
Ertak bo'lib qoldi bolalik...



APREL...

Samo

Bag'rim kabi kengdir, qalbim kabi bo'sh,
Tongda quyosh yolg'iz, tunlar oy jimdir.
Huvillagan ko'kda darbadar kezsam,
Ko'zim uchib borar, uchramas kimdir.

Aprel.

Zaminni qopladi bahor ohista,
Tabiat mudroqda, ko'zlarda g'ubor.
Kimdir qayerdadir uxlarimi hamon,
O'zing uni sekin uyg'otib yubor.

Va yig'lolmayapti, samo jim, tingan,
Ko'zim ummonida qurigandek sel.
Hamon intiq qildi ko'zin yoshiga,
Ruhim poklaguvchi yomg'ir bilan kel.

Aprel.

Hamon vujudimga kirolmas bahor,
Ammo qahratonga umrimni bermam.
Ichimni to'ldirgin, Tangrim, sujudga,
Yuragimdan chiqib ketguncha fevral.

Men kutdim, biz sevgan o'shal yomg'irni,
Samo bo'shab borar shamol dastidan.
O'zim g'amdan sharros yog'ilaman va
O'sha kimdir kelar yomg'ir ostida...

VATAN QOLAR

Ruh samoga chiqqanda,
Yerda faqat tan qolar.
Qalblarda esa mangu
Abadiy Vatan qolar.

Tarix ko'rgan jafolar,
O'tib ketgan daholar,
Deyishadi bobolar:
Abadiy Vatan qolar!

Yer aylanar naql bor,
Harki yurtida oqil bor,
Kelajakka daxldor
Abadiy Vatan qolar!

Kurashib xos mardlarga,
Yurtni bermay yotlarga,
Bizlardan avlodlarga
Abadiy Vatan qolar!

Ajdodlardan aks-sado,
Mangu madad ber, Xudo,
Mudom jonimiz fido,
Abadiy Vatan qolar.

YONINGGA

Bildim, jinoyatlar qilganman sodir,
Birisi yengil-u, boshqasi og'ir,
Nafasim ichimga yutdim-u, oxir,
Bir shafolat istab keldim yoningga.

Dosh berdim haqsizlik zamoniga ham,
Tortdim har kun dilim tomoniga g'am,
Bu g'amlarga o'zing bergaysan barham,
Men adolat istab keldim yoningga.

Yanchilib ketmasdan dard dunyosida,
Yo'qolib ketmasdan vaqt daryosida,
Qo'rqaman afsuslar tavallosidan,
Zo'r himoyat istab keldim yoningga.

Ayamassan deya imkonlaringdan,
Abad umidvorman rizvonlaringdan,
Qalb to'la muhabbat ehsonlaringdan,
Mo'l saxovat istab keldim yoningga.


Hukmronlik qilar dilga yolg'izlik,
Men bilan hamrohdir ming bitta hadik,
Jism-u ruhiga erk kerak qullardek,
Men halovat istab keldim yoningga.

Aksing ko'zlarimda olamni bezar,
 Yuragimda g'urur kishanin buzar,
 Ikki dunyoyimni etguvchi go'zal,
 Ishq, hidoyat istab keldim yoningga...

ULUG' TOG'

G'ururingiz ulug' tog' kabi
 Sabotingiz qoyalaridek.
 Mustahkamdir, ota, qaddingiz,
 Har to'siqda turolingiz tik.

Menga o'rnak sizning yo'lingiz,
 Turibman-ku ko'zlarim yonib.
 Tog' bo'laman bir kuni men ham,
 Yuklsalyapman sizga suyanib...



JANNAT ISI KELAR SIZDAN, ONAJON!

Mehringiz taftida isinar jonim,
Oftob hissi kelar sizdan, Onajon!
Siz-la baxtim totli, go'zal har onim,
Jannat isi kelar sizdan, Onajon!

Duodan qolmaydi xushzaboningiz,
Uyim jannat – omon bo'lsa joningiz,
Halovat maskani erur yoningiz,
Jannat isi kelar sizdan, Onajon!

Siz mening munisam, beozorginam,
Olisda bo'lsam gar, intizorginam,
Mening kamtarginam, xokisorginam,
Jannat isi kelar sizdan, Onajon!

Farzanddan ortiqroq neni suydingiz?
Bolam deb ardoqlab, men deb kuydingiz,
Oq sut ila qalbga iymon quydingiz,
Jannat isi kelar sizdan, Onajon!

Firdavsga yo'l erur onalar xoki,
Xizimatingiz qilay tirikman toki,
Yuzingiz hurlardek yorug' hattoki,
Jannat isi kelar sizdan, Onajon!

Yelkamda ko'tarib Hajga eltayin,
Solih bo'lib ulug' Tojga eltayin,
Ruhim allalagan, mayin yeldayin
Jannat isi kelar sizdan, Onajon!

HAYRAT

Tafti qaynoq chiroyingizning,
Dilimizda eriydi qorlar.
To'rt fasl ham yuzlaringizga
Ifor sochib turar bahorlar.

Gul quchoqlar barmoqlaringiz,
Bir-birining sirin sotmaydi.
Hayratlanar buncha nafis deb,
Gullar sizni ehtiyotlaydi.



O'ZBEGIMNING QIZLARI

Vatanim gul bog'ida
Guldan shirin islari.
Yuragim ardog'ida
O'zbekimning qizlari.

Tuproq bo'lar devona,
Tegib ketsa izlari.
Go'zallikda yagona
O'zbekimning qizlari.

Orzulari osmondir,
Oydan oydin yuzlari.
Har qaysi bir dostondir
O'zbekimning qizlari.

Chiroyi, bu hayodir,
Ta'rif yetmas, ayondir,
Ko'p tillarda bayondir
O'zbekimning qizlari.

Kundan yorug'dir yuzi,
Qalbim kecha-kunduzi,
Yuragimning yulduzi,
O'zbekimning qizlari.

Dilda sevgi shamoli,
Ko'z oladi kamoli,
Go'zal yurtim jamoli
O'zbeginning qizlari!..

AFSUS

Yillar – yo'llaridan adashgan dovdir,
Orzular – sovuqdan qurigan daraxt.
Biz o'sha daraxtda gulladik bir-bir
Va yerga to'kildik armondan karaxt.

Endi-chi, poyida ezg'ilar sog'inch,
Oyoqlar ostida toptalar qalblar.
Xazonga aylanar topolmay ilinj,
Afsusdan, afsusdan pichirlar lablar...



SALOMNI UNUTDIM...

O shahar, bunchalar behis, bemehr,
Toshkentmi yoki bir toshdil, toshbag'ir?
Begona odamlar ichida, axir,
Men salom berishni unutib qo'ydim.

Salomim tushmasdi aslo tilimdan,
Iblislar tortdimi bugun qo'limdan,
Xizrlar chiqqandir, balki yo'limdan,
Men esa salomni unutib qo'ydim.

Ko'chalar g'uvillar, lek odamlar jim,
Jimlikka singaman, ingraydi dilim,
Qadamda qarzga botgaydir tilim,
Men salom berishni unutib qo'ydim.

Menga ta'lim berar doim oliygoh,
Lek insoniylikdan etmaydi ogoh,
Menga desa olim bo'lmaymanmi, voh,
Axir, salomimni unutib qo'ydim.

Yelkamga ortqilab qarzdorlik yukin,
Yerlarga qorishar nigohim sekin,
Shaharlik bo'lishni epladim, lekin
Men salom berishni unutib qo'ydim.

Qay yerga boroldim o'zimdanda kechib,
 Ollohim, ne sirlar sochding dilimga?!
 G'urur libosini tanimdan yechib,
 Salomni qaytargin satang tilimga!

21 YOSHIMGA...

Armon ortar armon ustiga,
 Kattalashib boraverar dard.
 Kattalashib ketmoqda dunyo,
 Yigirma bor to'kilar daraxt...

Gul davrimdan uzoqlashyapman,
 Omad hamon yuradir ranjib.
 Maqsadimdan olislab ketdim,
 Yillarimga tushyapti ajin...

Yigirma bir, senga bir dunyo
 Eskirgan dard olib boryapman.
 Men qalb bilan yashayapman va
 Yuragimdan qarib boryapman...

OTAMGA

Siz borsiz, sizdan ham kuchliman, ota,
Shunday bir fitratdan yorishgan ichim.
Sababi, qalbmida buyuk Robbim va
Yelkamda qo'lingiz borligi uchun!

Dilda sizdan ko'chgan olovli shahd bor,
Aytgan har so'zimda chaqmoq bor, ahd bor,
Menga farishtalar yasagan taxt bor,
Yelkamda qo'lingiz borligi uchun!

Bugun men qay tomon boshlasam yo'lim,
Bir nur porlab turar oydayin to'lin,
Istasam yulduzga yetadi qo'lim,
Yelkamda qo'lingiz borligi uchun!

Hayot janglariga tikka kulgayman,
Kurash bor qonimda hech yiqilmayman,
Mag'lublik ta'mini qanday bilmayman,
Yelkamda qo'lingiz borligi uchun!

Ko'zimga tik boqib kelolmas yovlar,
Mag'rur ruhimga hech berolmas dovlar,
Poyimga cho'kadi har qanday g'ovlar,
Yelkamda qo'lingiz borligi uchun!

Dunyo ham boshimni silaydi hatto,
 Siz borsiz boshimda tutaman, axir.
 Yelkamdan qo'lingiz olmang hech, ota,
 Olsangiz, bir barg ham keladi og'ir...

SEN

Sen ifori mushkdan ham totli,
 Va tomchidan shaffofsan, evoh!
 Sening lutfing – ehsoni hayot,
 Bir on nafas olmaslik gunoh!

Sen ko'rinmas dilbar go'zallik,
 Seni dildan tuymoqligim – baxt!
 Ishqqa o'rab nafis ismingni,
 Shu ishq bilan suymoqligim – baxt!



BIR KELIB KET

Seni sevdim, ey gul, zulfizar,
Tanimda so'ng jonim qolguncha.
Ruhim ko'kka yo'llamay kadar,
Bir kelib ket bahor kelguncha.

Yuragimda ishq rangli gilam
Tashrifingga intizor buncha,
To'shaladi sog'inchim bilan,
Bir kelib ket bahor kelguncha.

Bo'g'zimgacha keldi bu g'ubor,
Oh, qismatning achchiq ta'mi bor,
Dimog'imga to'ldirib ifor,
Bir kelib ket bahor kelguncha.

Dilimdan yuv sog'inchning ta'min,
Ko'zimdan quv hijronning g'amin,
Yangilanmish sen-la bu zamin,
Bir kelib ket bahor kelguncha.

Nigohingda arazdan belgi,
Ey, lablari go'zal gulg'uncha,
Ko'zlarimda gullasin sevgi,
Bir kelib ket bahor kelguncha...

BIRINCHI MARTA

Terildi, nihoyat, tanish raqamlar,
 Gudok yalinadi ming azob dardda.
 Chaqiruv tugaydi, boshlanar g'amlar,
 Yo'q. Javob bermading birinchi marta.

Endi yangramasmi ismim jarangi,
 Yangroq kulgularga tortildi parda.
 Yaqin ko'rinmoqda qayg'uning rangi,
 Yo'q. Javob bermading birincha marta.

Xayrmi bu belgi, so'nggi nuqtami?
 Uzoq jim turmasding, qolsang agarda.
 Gudoklar to'xtadi, yurak to'xtadi,
 Sen javob bermading birinchi marta.

Qayta teriladi shoshgancha raqam,
 Osmon torayadi, yer qilar zarda.
 Sen-chi, e'tiborsiz, o'ta xotirjam,
 Ha, javob bermading birinchi marta.

Oniy chaqiruvlar yildek cho'zildi,
 Dunyolar to'xtadi shu fursatlarda.
 Tamoman uzildi, umid uzildi,
 Sen javob bermading birinchi marta...

KO'NGLIMDAGILAR

Ko'zimga qorong'u ko'rindi borliq,
 Ilon bo'lib chaqdi qo'ynimdagilar.
 Ularga borimni etgandim tortiq,
 Ko'nglimni qoldirdi ko'nglimdagilar.

Ishondim, aldashdi ko'zlarga boqib,
 Umidim ketdilar yillarda oqib,
 Qalbimda bir alam turibdi qalqib,
 Ko'nglimni qoldirdi ko'nglimdagilar.

Kutmagan paytimda sinovlar keldi,
 Yoshligim sovurib, shamollar yeldi,
 Ko'zimga cho'p tiqdi, ko'ksimni tildi,
 Ko'nglimni qoldirdi ko'nglimdagilar.

Otgan har bir o'qi qalbingga tegar,
 Puling bo'lsa, boshin poyingga egar,
 O'zin yaqin qilib ko'rsatgan jigar,
 Ko'nglimni qoldirdi ko'nglimdagilar.

Mehr ulashganning yoniga bordim,
 Joning kerak desa, ko'ksimni yordim,
 Dilim og'ritsalar, Xudoga soldim!..
 Ko'nglimni qoldirdi ko'nglimdagilar.

Haqqa yaqin yursam, kulganlar bo'ldi,
 Do'st degan tulkilar uzoqlab yurdi,
 Qo'rqiblar o'tdilar men bosgan yo'lni,
 Ko'nghlimni qoldirdi ko'nghlimdagilar.

Dardimni qog'ozlar ko'tardi, shukr,
 Ko'rdim, ko'rgiliklar o'tardi, shukr,
 Sofdil, yolg'on bilmas, soddagina, g'o'r
 Ko'nghlimni qoldirdi ko'nghlimdagilar...



BIROVGA ISHONIB BO'LMAYDI

Yorijon, bu dunyo yarmi yolg'ondir,
Ishondim, ishondim, ishonchim sindi.
Aldandim, aldandim, yuragim qondir,
Hech kimga ishonib bo'lmaydi endi.

Odam ham iblisning birinchi saydi,
Shundan xato yo'lda yuribmiz daydib,
Yaratgan qoshiga boramiz qaytib,
Hech kimga ishonib bo'lmaydi endi.

O'zi baxt yarimdir, muhabbat yarim,
Ko'ngil qolib borar yashagan sarim,
Meni aldashadi ishonganlarim,
Hech kimga ishonib bo'lmaydi endi.

O, zamon jarlikka tomon surilgan,
Zamini zil ketgan, yo'li burilgan,
Suyagan ustuni qumdan qurilgan,
Hech nega ishonib bo'lmaydi endi.

Yorijon, dil qadri shuncha arzonmi,
Yolg'ondan sening ham yuraging qonmi?
"Sevdim" deganimga sen ham ishonma!
Hech kimga ishonib bo'lmaydi endi.

Yolg'onga ko'nikkan yurak yurakmas,
Yurarman chiroyli ertagimdan mast,
O'zimni aldashni boshladimmi, bas,
Boshqaga ishonib bo'lmaydi endi!

IRODA

Oyog'imdan chaldi xatolar,
Tik qolmoqqa yetmadi kuchim.
Tag'in qaddim tutdim, dunyoga
Kelmaganman yutqizmoq uchun.

Tuyulgandi bu janglar qiyin,
Mardlik ta'min bilmagunimcha.
Tugamaydi hech qachon o'yin
Men g'alaba qilmagunimcha!



KECHIKKAN SHE'R

She'rlarimni bog'ladim senga,
Yuragimni dog'lab ketgansan.
Axir, barcha xayollarimni
Kokilingga bog'lab ketgansan...

...Va hammasi sen bilan bitgan,
Bahor kelmay qo'ygan arazlab.
Sen-la yurgan xiyobonlardan
Men bahorni yuraman izlab.

Ammo bekor bo'ladi bari,
Xayolimda buzilgan ochun.
Kuz keladi har kuzdan keyin
Yetim qolgan muhabbat uchun...

Yuragimda yig'laydi sevgi,
Ko'zlarimdan tomchilar sog'inch.
Nigohimdan bezigan hasrat
Xazondan ham topolmas ovunch.

Xayolimda buzilgan ochun,
Ishq ko'ksimdan nishlar teradi.
Goh qovog'ing eslatib osmon
Laylakqorlar yog'ib beradi.

Izg'iringa solib xayolim,
 Men kutarman qishni orziqib,
 Qor gilamdek to'shalgan yo'llar,
 Go'yoki sen kelarmisan deb.

Ammo,
 ammo yana umidim uzib,
 Yuzlarimga xazonlar bitar.
 Yuragimda muzlarni ko'rib
 Qishlar mendan yuz burib ketar.

Ko'z ochaman sensiz tonglarga,
 Yuzlarimni sabo siladi.
 Men bahorni kutaman ilhaq,
 Lekin yana kuzlar keladi...

Yana kuzning birinchi kuni...



DENGIZNI SEVASAN...

Sen dengizni sevasan, hayhot,
 Xayolingda alvon yelkanlar.
 Ertakchidek tuyular senga
 Dengizlarni ko'rib kelganlar.

Men mavjlari ulkan dengizman,
 Boshim Senda, poyonim hadsiz.
 Sensiz men eng mashhur yolg'izman,
 Sog'inchlari cheksiz, sarhadsiz.

Telbalardek chayqalar ruhim,
 Sen bir suluv, men bir to'pori.
 Marvaridlar tutaman senga,
 Agar kelsang ko'ksimni yorib.

Sen dengizni sevasan, tamom,
 Bu his go'zal, bu his ko'p yaxshi.
 Orzu nedir, bilarmi avom?!
 Tushunmaydi, baxtinga qarshi...

Nigohlaring savolga to'la,
 Orzularga qo'shilar g'ayrat.
 Mushtoqliging bilan biryo'la
 Sog'inchlaring keltirar hayrat.

Tuyg'ular betutqich, beega,
 Dunyolar tor keladir hisga.
 Dengiz o'yi qayerdan kelgan
 Daryolarni ko'rmagan qizga?

Sen dengizni ko'rmoqchisan, bas,
 Haqiqatga aylanar tushlar.
 Kelmoqdasan daraklaringni
 Yetkazmoqda chag'alayqushlar.

Osmonlarga tutash bo'lsam ham,
 O, ishqimning bo'yidan pastman.
 Yo'llaringga mushtoqman, lekin
 Tashrifingga tayyor emasman!

Sen dengizni sevasan, men-chi?!
 Men! Dengizga aylanaman, kel!
 Yaqin qolding, ortar sevinchim,
 Iforingni keltirmoqda yel.

Tushlaringni kezinasan teng,
 Tun. Jimgina orom olasan.
 Tong. Dengizga aylanaman, sen
 Ummonlarni sevib qolasan!

Men sochilib ketaman tamom!

SIZMASMIDINGIZ?

Ayro bo'lib qoldi ishqimiz,
Armon yelin sezmasmidingiz?
Titrab ketdi ko'ngil ko'shkimiz,
"Sevdim!" degan sizmasmidingiz?

Siz ziyosiz dilim uyg'otgan,
Quyoshimsiz tong bo'lib otgan,
Nigohlari izhorin sotgan,
"Sevdim!" degan sizmasmidingiz?

Ko'zlaringiz nigohimga zeb,
Dunyolardan qo'yardek uzib,
"Men umrbod siznikiman" deb,
"Sevdim!" degan sizmasmidingiz?

"Baxtli bo'l" deb, "daldalar" qilib,
Ketayapsiz zardalar qilib,
Bir umrlik va'dalar qilib,
"Sevdim!" degan sizmasmidingiz?

Endi hijron cho'lidasizmi,
Ko'zyoshimning do'lidasizmi,
"Yaratganning yo'lida sizni –
Sevdim!" degan sizmasmidingiz?

Sog'inganda kutib, axtarib,
 Mensizlikda kuzmasmidingiz?
 "Ishqingizda yuragim g'arib,
 Sevdim!" degan sizmasmidingiz?

TILAK

Oллоhim qalbimni isloh qilib tur,
 Dunyo xayolidan poklansin yurak.
 Boshimni samodan qaro yerga bur,
 Meni senga eltar manzillar kerak...

* * *

Ishonchdan asar yo'q dilda zig'ircha,
 Hayratim – ko'zingda yo'qdir xavotir.
 Duoda ojizdan-ojizsan buncha,
 Lek gunoh qilganda botirsan, botir!



OTABEK MONOLOGI

Lolalar to'shayin poyingizga man,
Sizga ne ozorliq, ayting, Kumushim,
Birgina "qochqoq" deng, yuzimni tutay,
Bearingiz kutmoqda, qayting, Kumushim.

Yo'limiz poylaydi bizni Marg'ilon,
Kundoshli shaharni tashlab ketamiz!
Yuring, go'zal yakun topamiz birga,
Yuring, go'zal ertak boshlab ketamiz!

Axir... axir, mushtoq kutyapti unda
Tanho malagini vodiy elingiz.
Ko'zlarida sog'inch ulg'ayar kunda,
"Ona" deb so'raydi Yodgorbearingiz!..
Fuzuliydan o'qing, unutay birpas
Begunoh bo'yoqchi qatllarini.
Aqlari sizning aqlingizchamas,
Bu yurtning "qo'g'irchoq, odillarini".

Eh jonim, kechiring, aybimdan o'ting,
Qay baloga tiqdim boshlaringizni?
Bu dunyoning razil kundoshlariga
Tupuring zaharli oshlaringizni.

CHARCHADIM...

Sochimdan oqimni terib charchadim,
 Dunyoga borimni berib charchadim,
 Ollohim, yurakka bir taskin bergin,
 Dunyoda bemaqsad yurib charchadim...

Qalbinga singdirgil halovat ta'min,
 To'ldirma, mayliga, dunyomning kamin,
 Ortiq ko'tarolmam ishqsizlik g'amin,
 Oddiy sevgidan ishq qurib charchadim...

Qandayin go'zal his ilm-u toliblik,
 Mudom arosatdan olis qolishlik,
 Vijdonim tarafda qolsin g'oliblik,
 Nafsimga to'siqlar qo'yib charchadim...

Ming bir tashvishda ham qilgin xotirjam,
 Qalb iymon bilmasa, yutib qo'yar g'am,
 Men baxtni his qilay ko'z yosh bilan ham,
 Dunyoga yolg'ondan kulib charchadim...

MUSLIM O'ZBEKMIZ

Bir hol doim avraydi dilni,
Buyuklarga bo'ldik izdoshlar.
Ammo endi o'zbek nomiga
Mos kelmaydi hozirgi yoshlar.

Ming shukrki, bizga o'zbeklik
Qolgan ota-bobodan meros.
E'tiqod va amalimiz yo'q
Va muslimmiz nomiga, xolos.

Og'zimizda buzilgan so'zlar,
Baqirgaymiz otaga tikka.
Musulmoncha kiyim-ku, yo'q, lek
O'xshamaymiz hech yo'q o'zbekka.

Yashayapmiz dunyo dardida,
Chopib zamon ketidan hallos.
Na iymon bor turishimizda,
Na g'urur bor bobolarga mos.

Azaldan biz muslim o'zbekmiz,
Yarashmaymiz ikkisiga ham.
O'zbek bo'lib chekaman tashvish,
Muslim bo'lib tortadirman g'am.

Yarashiqsiz nomiga zotlar
Ko'paymoqda bu kun o'lkamda.
Oh, bu ikki nuqson har lahza
Ikki tog'dek o'sar yelkamda.

Bu jamiyat dardi tuzalgay,
Qachon tilda tugasa qarsak.
Qaytsak asl o'zbek holiga,
Muslim bo'lib yashay boshlasak!

* * *

Jangda botir jim kutar doim
Va oxiri keladi ustun.
Zaifligin bilgan zahoti
Qo'rqqoq oldin ko'tarar mushtin...



XONLIK DAVRI

To'lib yotmish o'likka yo'llar,
 Qonga botmish begunoh qo'llar,
 Tirik qolmish Musulmonqullar,
 Xonliq davri, sendan xafaman.

O'lim kelsa, jilmaya olgan
 Otabegi sanoqli bo'lgan,
 Har tomoni Homidga to'lgan
 Xonliq davri, sendan xafaman.

Beaql xon, befahm a'yon
 Avom xalqni boshlaydir qayon?
 Sofdil millat bo'ynida chayon
 Xonliq davri, sendan xafaman.

O'z qoningga qorishding qo'yding,
 Bir-biringni sotishdan to'yding,
 O'zing yoqqan gulxanda kuyding,
 Xonliq davri, sendan xafaman!

Jallodlarning jallod qaroshi,
 Noilojning to'kilgan yoshi
 Va ayovsiz uzilgan boshi,
 Xonliq davri, sendan xafaman.

Nahot anglamading dardlaring?
 Aqlingni ham yopdi gardlaring,
 Xoining ko'p, qani mardlaring?
 Xonliq davri, sendan xafaman!

Arazlashga sig'moqda haddim,
 Sen tufayli bukilgan qaddim,
 Tarixingni o'qib aytaman –
 Xonliq davri, sendan xafaman!

ORQADAGI DUSHMAN

Tikka otilsaydi qurollardan o'q,
 Naq yurakka tegsa, sachrasa qoni.
 Ruhimni sil qildi dildagi og'riq,
 Ignaning uchida turibdi jonim.

Meni tamom qildi ortimdan fasod,
 Yelkamda zaharli tillar sanchilgan.
 Meni yengolmadi mardona qasos,
 Ammo ig'volardan dilim yanchilgan!

A'ZAM O'KTAMGA

Ixlosim so'lgandi tamoman, besar,
Yuraksiz shoirlar ko'payib ketgan.
Haqiqatdan boshlar she'r yozar bo'lsa,
Ammo haq uchrasa, o'tadir chetlab.

Dil tilida yozmas, yozgani boda,
So'zning uvolidan tortmas sira g'am.
Tutun, tamakiga burqsigan xona
Va she'rlar yozadi alahsiragan...

Uyg'oq qalblarga hech yetmaydi kuchi,
Aljiroq so'zlardan topmadim ma'ni.
Yozmas jaholatdan uyg'otmoq uchun,
Uxlamoqqa chorlab yashar ommani.

Chandon zerikkandim nazm chohidan,
Toki topgunimcha A'zam O'ktamni.
Kirdim she'riyatning gulgun bog'iga
Xush hidga to'ldirib sanchiq o'pkamni.

Ilk bora ko'rdim men nazmning kuchin,
She'rlar yozib qog'oz yondirgan qo'lni.
*Ketarda yengilroq jon bermoq uchun,
Tanlab yashadingiz og'irroq yo'lni.

Shoirda shundayin mardlik kerakdir,
 Sobit qololdingiz muslim ahdida.
 Mudrab, g'aflat bosgan qancha yurakni
 Uyg'otib ketdingiz sahar vaqtida!

TAQDIR

O'rtamizdan o'tmasdi qil ham,
 Sir yo'q edi qolmagan ochiq.
 Izlar o'tdi qing'ir yo'l bilan,
 Kuzlar keldi oramiz ochib.

Sendek hech kim sevmasdi, bildim,
 Men hech kimga bermay sevdim, lek.
 Yo'l so'ngini orzular qilib,
 Yarim yo'lda yomon ayrildik.

Cheksizlikda tugardi manzil,
 Bo'ynimizda ishq tumor edi.
 O'rtamizdan o'tmas edi qil,
 Faqatgina taqdir bor edi...

SHOIRNING ONASI!

Asli maqtovlarga loyiq zotdir u,
Bolam deb, oqargan sochin tolasi.
Elning yuragida yashaydi mangu
Shoirning onasi, shoir onasi!

Kokilin o'ynoqlab tong yeli esgan,
Kiprigi oydayin yuzini to'sgan,
U mehnat ayoli, mehnatda o'sgan!..
Shoirning onasi, shoir onasi!

Ezgulik, poklikka bog'lagan qanot,
Shonli buyuklarga bag'ishlar hayot,
Dunyoda eng oqil, eng olima zot
Shoirning onasi, shoir onasi!

Bolasi shoirdir qadamida gul,
Shon-shuhratga o'ch, maqtovlarga qul.
Shaharlik o'g'lini sog'inar nuqul
Shoirning onasi, shoir onasi!

Dilbandin yozgani doim oq baldoq,
Tannozi xonimlar-u, birda qizg'aldoq,
She'rlarin o'qiydi qo'llari qadoq
Shoirning onasi, shoir onasi!

Yo'l poylab ko'zlari intizor bo'lar,
 Jigarbandi uchun jon nisor bo'lar,
 Sodda va kamtarin, xokisor bo'lar
 Shoirning onasi, shoir onasi!

SENI DEB...

Sen meni sevmaysan, beparvogina
 Yurasan hattoki xayolda yolg'iz.
 Qarab tur, men mag'rur saqlayman gina,
 Alamni poyingga cho'ktiraman tiz!

Gaplarim havoyi, ahdlarim eski,
 Amalim mujmalroq, qalamim keskir,
 Dunyoni bir kuni titratib zir-zir,
 Qalamni poyingga cho'ktiraman tiz!

Yurakda rad bo'lgan buyuk bir his bor,
 Tilimdan chiqolmay titraydi izhor,
 Barcha alam uchun, sen uchun yuz bor
 Olamni poyingga cho'ktiraman tiz!

MUHABBAT

Nigohlar to'qnashdi, kesishdi dillar,
 Yurakka yashindek urildi bir his.
 Qarashlar o'tlidir, bezabon tillar,
 Dengizday qalbimga quyiladir ishq.

Taqdir qonunlarin beomon buzsa,
 Muhabbat – shundayin olovli g'ussa.

Dunyolar to'xtadi, vaqt qoldi muzlab,
 Oltin daqiqalar chetga surindi.
 Muallaq qalqigan sog'inchlar uzra
 Yorning jozibador aksi ko'rindi.

Nahotki, ko'ngilni olamdan uzsa,
 Muhabbat – shunday bir ilohiy g'ussa.

Yetishmoqlik orzu, visoldir totli,
 Qonimda ilohiy oqadi baxtlar.
 Izhor xushmuomala, til iltifotli,
 Go'zallik oldida chekinar vaqtlar!..

Qaniydi, umrbod safarin cho'zsa,
 Muhabbat shundayin chiroyli g'ussa.

Rashk o'ti kuydirar, hijroni alam,
 Dardning vazni zildek – og'ir xarsangtosh.
 G'ami dunyo qadar sig'magan bir g'am,
 Birgina daldasi – ko'zyoshdir, ko'zyosh!

Qaqragan qaroqqa tomchilar tizsa,
 Muhabbat – alamli, azobli g'ussa.

Ajratmas, tanlamas shohmi yo gado,
 Shart o'rar qalbini sevgiga mangu.
 Bu lutfdir, karamdir, bu Haqdan ato,
 Muhabbat – had bilmas, qalb bilmas tuyg'u!..

Muhabbat – bu baxtdir, muhabbat – bu dard,
 G'ussadir boshidan oxiri qadar!

* * *

Hayotga kelibman ulg'aydim, o'sdim,
 Olloh berganidan yo'q kam-u ko'stim,
 Umr asov otdir, tugasa marra,
 Bitta qiyomatlik yo'q ekan do'stim!..

O'SHANDA HAM QOR YOG'AR EDI...

O'shanda ham qor yog'ar edi,
Yer o'ralar edi oqlikka.
Sevgimizni allalar edi
Dilimizni chulg'ab poklikka.

Xayol surib, biz baxtdan sarxush
Visol g'olib ishq maydonida.
Turgan kabi ikki murg'ak qush
Berkingandik dil ayvonida.

Go'zal bezab olamni butkul,
O'rar edi Naqqosh viqorga.
Sevgimizni isbotlab nuqul,
Ismimizni yozardik qorga.

Men ham jimman, sen ham uyatchang,
So'zsiz boqib ko'zlarimizga.
Malohatin oshirib harchand,
Qor yog'ardi yuzlarimizga.

Nelarnidir sezgandek bo'lib
Uvillardi o'rtada ayoq.
Urilardi quloqqa kelib
G'amni eslatguvchi bir ovoz.

E'tibor ham qilmasdik hatto,
 Qordan bo'lak hech qanday hisga.
 Tugamasdi sevgimiz, ammo
 Qor tushardi sekin-ohista.

Sekinladi, visol ham tindi,
 Qaytish yo'li ko'rindi qing'ir.
 Qor yoqqanda kelmassan endi,
 Ayriliqdan so'z ochdi taqdir.

Sensiz qoldim dil ayvonida,
 Yurak yig'lar ko'nikmay-ko'nmay.
 Ko'kdan Xarob ishq maydoniga
 Bugun ham qor yog'moqda tinmay.

Ammo men yo'q, sen ham bor emas,
 Lekin hislar abadiy uyg'oq.
 Bizga qorlar zor qolgan emas,
 Sevgimizga turibdi chanqoq.



ESKIRGAN UMID...

Olisdasan, juda ham olis
Olib ketgan yuragimdasan.
Endi men bir toshdil, yuraksiz,
Qovurg'am-la ichaymi qasam?

O'chmas edi yoding yodimdan,
Ranjing meni ko'mgandi g'amga.
Sen yor bo'lib ketding yonimdan,
Begonadek qaytding olamga.

Endi dunyo yonsin o't bo'lib,
Yuragi yo'q bitta oshiqqa.
Kuygan dilda yaradek do'nib,
Men yot bo'lib yuribman ishqqa.

O'x, azobdir gulxanda yashash,
Do'zax tashlab ketding arshimga.
Men yoningga borsam qachonki,
Sen yor bo'lib chiqqin qarshimga.

Qutqar meni otash qa'ridan,
Yuragimni qaytarma yoki.
Do'zax misol dunyoda yorga
Birov bo'lib yasharman tokay?

OQ YO'L!

Mendan ketmoq istasang, oq yo'l,
Ketma, deya tutmam qo'lingni.
Sen quyoshdan uzoqlashyapsan,
Xudo yorug' qilsin yo'lingni.

Ketmog'ing-chun ochaman eshik
Yuragimning qat-qatlaridan.
Sen shunchaki yo'lovchi bo'lib
Ketding ishqning bekatlaridan...

Demak, loyiq emassan ahdga,
Manziliga yetmaydi shoshgan.
Ko'zimizni aldagan baxtmas,
Ishq degani aslida boshqa.

Senga ko'ngil bermoqlik xato,
Seni sevmoq buyuk telbalik.
Bildim, sen bir dardi bedavo,
She'r ham senga oddiy ezmalik.

Bir kun aqling anglab yetganda
Qarog'ingda to'lib ketsa ko'l,
Qalbing baxtni tusab qolganda
Qaytib kelma, omon bo'l, oq yo'l!

SEVGI

*Qanday shirin bu baxt, bu safo,
Shunday achchiq bu dard, bu jafo.
Ko'zyosh bilan tugaydi, ammo
Tabassumdan boshlanar sevgi.*
Iqbol MIRZO

Nigohlarni hayratga solib,
Yuraklarga to'kilar mehr.
O'zga dilga bog'laydi dilni
Ko'kdan kelgan ilohiy sehr.

Dunyo go'zal bo'lib ketadi
Ikki yuzda gullasa kulgi.
"Yurakchadan" boshlanmaydi ishq,
Tarovatdan boshlanar sevgi...

Oldi-qochdi, bor tuyg'ularni
Qalbdan butkul sidirib tashlab,
Oliyjanob, yuksak hislardan
Yurak tamom o'zgacha yashnar.

O'zni butkul sezasan sokin,
Yuraklardan kelmaydi jilging.
Xalos bo'lib asriy g'amlardan,
Halovatdan boshlanar sevgi.

So'ngsiz quvonch etar baxshida,
 Bir boshqacha otadi tonglar.
 Bu dunyoni o'raydi, ishon,
 Faqat, faqat kamalakranglar.

Xayollari orzu ulashar,
 So'zlarida samimiy belgi.
 Borlig'ida kamtarin mehr –
 Muruvvatdan boshlanar sevgi...

Quyiladi tilga izhorlar,
 Sekin gulga o'ralar ravon.
 Yanoqlari hayodan porlab,
 Pichirlaydi lablar xushzabon.

Bo'ldi, endi o'qilar afsun,
 Javob kelar yuzlardan gulgun.
 Hadya etib go'zal tabassum,
 Saxovatdan boshlanar sevgi.

Sadoqatga qo'yilar imzo,
 Ishonch tilga sololdi g'ayrat.
 Endi dilga kirib keldi ishq,
 E'tiqodga aylandi hayrat.

Oh, nigohlar kesishar bir zum,
 Dunyo tinar, dunyo qolar jim,
 Ko'zlarida ko'rib Robbisin,
 Hidoyatdan boshlanar sevgi.

TUSHLARIMGA KIRIB...

Tushlarimga kirasan har kun,
Ko'zingda yosh, dilingda alam.
Jim yig'laysan, turasan beun,
Nigohingni ishg'ol etar g'am.

Sog'inding-a, juda ham, erkam,
Buni ko'zlaringdan sezaman.
Hayotimdan ketgan bo'lsang ham,
Tushlarimda ma'yus kezasan.

Ko'zlarimni sog'inib kelib,
O't qo'lasan havaslaringga.
Uzmay nigohimga termulib,
To'yadaysan hech nafaslarimga.

Ko'zlarimni yumsam-u, deyman,
Tush bo'lsa ham erkalab, suyib
Tushlarimda sevasan faqat,
Hayotingdan yo'qotib qo'yib.

Nega faqat yig'layverasan?
Ta'birlarga yetmaydi kuchim.
Ammo har kun ichim yonadi,
Tushda ko'zing namligi uchun.

G'urur qurg'ur yo'limizga g'ov,
 Sog'inch qiynab tashladi meni.
 Bilasanmi, har kun tushimdan
 Tortib olgim keladi seni.

HASRAT

Orzular to'kilib tushmoqda yerga,
 Xotiram aylanar bir yirtqich sherga,
 Sevgimdan mast bo'lib men bilan birga,
 Ishqimdan quvonchga to'lmasliklaring,
 Endi meni xayol qilmasliklaring.

Arazmi, g'arazmi ketar qo'llanib,
 Sevgimiz armonga qolar yollanib,
 Sochlaringni siltab, mag'rur sollanib,
 Ko'zimni yoshlaydi kelmasliklaring.

Umidlar uxlaydi dilda intizor,
 Kelishing baxt menga, ketmoqliging or,
 Sening qovog'ingdan to'kilmoqda qor,
 Ko'nglimni g'ash qilar kulmasliklaring...

UCHRASHUV

Keldim. O, sochlaring yo'llaringa yoz,
Zulflaring gajakdir, tutgil doringni.
Qattol sog'inchlardan olamiz qasos,
Bo'ynidan quchib ol Sarbadoringni!

Masih iforlaring pufla ruhimga,
Ko'ksingdan chiqargil o'tli quyoshing!
Tashnaman, yashnamam sensiz, gulobim,
Chanqoq hislarimga malham ko'zyoshing!..

Kirdim ko'zlaringning qaroqlariga,
Tikilib to'kilgil hozir istasang.
Men esam qovushib yaproqlaringga,
Lablarim gullaydi isming eslasam!

Menda ham bor edi ming yillik sabr,
Toki solgunicha zulfing sirtmoqqa.
Olib ketmoq uchun men keldim, oxir,
Yuragim tubiga tutqun qilmoqqa!

Sendaman!
Sochlaring barmoqlarimda,
O'rtada ayovsiz tashnalik tindi.
Ichimda o'chmas shu haroratlardan
Menda yurak bo'lib yon, axir, endi!

MENI ESLATAR

Tamom, yo'llar oxirga yetgan,
Armon dilni qahraton etgan,
Qor ustida qo'shilib ketgan
Izlar bir kun eslatar bizni.

Qasamlarda suzadir vafo,
Sog'inch bo'lib elanar navo,
Quloqlarga shivirlangan, o,
So'zlar bir kun eslatar bizni.

Duch keladi har kuni nedir,
Azobingiz qulochi kengdir,
Muhabbatga tegishli har bir
Hislar bir kun eslatar bizni.

Har poyonda bitta alvido,
Har qadamda bitta intiho,
Azoblardan sarg'aygan daho
Kuzlar bir kun eslatar bizni.

To'rt faslga tatigulik oh,
O'rtab yashar bir umr sizni.
Bolangizga termulasiz goh,
Ko'zlar bir kun eslatar bizni.

YURAGINGIZ TOSHMI

“Yuragingiz toshmi?” desam, meni sevgan,
Shuncha shirin so‘zlar bugun essiz ketdi.
Holsiz yurak bir bor sevib o‘zi kuygan,
Yana takror muzlar bugun, sizsiz ketdi.

Baxtlar to‘la, ahdlar to‘la bag‘rim bo‘shab,
Qimtinasis, jim, zabonsiz gungga o‘xshab,
Poyingizga hijronlardan barglar to‘shab,
Mahzun boqib kuzlar bugun sizsiz ketdi.

Qo‘l siltadim barchasiga, osmon cho‘kdi,
“Ketdim” dedim, bulutlari yoshin to‘kdi,
G‘ussa oxir bardoshim va qaddim bukdi,
Zangor-zangor yuzlar bugun sizsiz ketdi.

Kipriklarda tuzildi g‘am jolalari,
Yuragimda uzildi ishq tolalari,
Tinglab dilning hazin-hazin nolalarin,
Xiyobonda izlar bugun sizsiz ketdi.

Ko‘ksingizga bir tig‘ urdim, bizdan ozor,
Bir yigitcha olislarga hissiz ketdi.
Sizsiz yetdi ishqqa shikast, go‘zal dildor,
Dili pora qizlar bugun bizsiz ketdi...

“Yuragingiz toshmi?” desam, meni sevgan...

ISHQ

Men bu dunyolarga g'aribdan-g'arib –
Dilimga dil izlab kelib qolganman.
Yuragim tubidan hikmat axtarib,
Men seni Xudodan so'rab olganman!

Qalbimni yoritgin, qalbim tundur, deb,
Ichimda ixlossiz gulni so'ldir, deb,
Yurakka hidoyat nurin to'ldir, deb,
Men seni Xudodan so'rab olganman!

Ruhim Majnun kabi yurganda daydib,
Har kuni tushlarda ismingni aytib,
Sen ming bor ketganda, ming bora qaytib,
Men seni Xudodan so'rab olganman!

Ba'zan olislarda sog'inchni sizlab,
Qahring soyasida yurardim tizlab,
O, muzday qalbingdan shafolat izlab,
Men seni Xudodan so'rab olganman!

Mana, sen kelding, men hayratda qoldim
Xuddi g'arib odam topgandek oltin,
Balki, ishonmassan, baridan oldin
Men seni Xudodan so'rab olganman!

MUNDARIJA

Halima Ahmad. Niyati ezgu qalamkash.....	3
O'rindiq.....	5
Axir, bugun sen tug'ilgan kun.....	7
Ketdim.....	8
Uzrdan keyin.....	9
Tanlov.....	9
Ona qishloq.....	10
Bolalik.....	12
April.....	14
Vatan qolar.....	15
Yoningga.....	16
Ulug' tog'.....	17
Jannat isi kelar sizdan, onajon!.....	18
Hayrat.....	19
O'zbekimning qizlari.....	20
Afsus.....	21
Salomni unutdim.....	22
21 yoshimga.....	23
Otamga.....	24
Sen.....	25
Bir kelib ket.....	26
Birinchi marta.....	27
Ko'nglimdagilar.....	28
Birovga ishonib bo'lmaydi.....	30
Iroda.....	31
Kechikkan she'r.....	32
Dengizni sevasan.....	34
Sizmasmidingiz?.....	36
Tilak.....	37
"Ishonchdan asar yo'q dilda zig'ircha....."	37

Otabek monologi.....	38
Charchadim.....	39
Muslim o'zbekimiz.....	40
"Jangda botir jim kuzatar doim...".....	41
Xonlik davri.....	42
Orqadagi dushman.....	43
A'zam O'ktamga.....	44
Taqdir.....	45
Shoirning onasi.....	46
Seni deb.....	47
Muhabbat.....	48
"Hayotga kelibman ulg'aydim, o'sdim...".....	49
"O'shanda ham qor yog'ar edi...".....	50
Eskirgan umid.....	52
Oq yo'l.....	53
Sevgi.....	54
Tushlarimga kirib.....	56
Hasrat.....	57
Uchrashuv.....	58
Meni eslatar.....	59
Yuragingiz toshmi.....	60
Ishq.....	61

UO'K: 821.512.133-1(081)

KBK: 83.3(50'zb)

E 45

E 45 Elbek o'g'li, Niyatillo.

Ko'nglimdagilar [matn]: *she'rlar* / N. Elbek o'g'li.

– Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti, 2020. – 64 b.

Adabiy-badiiy nashr

NIYATILLO ELBEK O'G'LI

KO'NGLIMDAGILAR

She'rlar

Muharrir: *D. Mingboyeva*

Badiiy muharrir: *F. Ermatov*

Sahifalovchi: *N. Soatov*

Musahhah: *Sh. Hakimova*

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
"ADABIYOT NASHRIYOTI" MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.
100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

☎ (98) 128-30-04.

Bosishga 20.12.2020-yilda ruxsat etildi:

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90 ¹/₃₂.

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 2,0.

Adadi: 5000 nusxa. Buyurtma №370.

"AZMIR NASHR PRINT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.



Niyatillo Elbek o'g'li
1994-yil 29-sentyabrda Navoiy viloyati Xatirchi tumanida tug'ilgan. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Kino, televideniye va radio san'ati fakulteti talabasi. 2019-yilda o'tkazilgan Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminari ishtirokchisi.

NIYATILLO ELBEK O'G'LI

KO'NGLIMDAGILAR

"ADABIYOT"
NASHRIYOTI

ISBN 978-9943-6779-9-9



9 789943 677999